

AXSIKENT MEROSINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TARG‘IB ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Mahkamov Mahmudjon G‘olibjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Tel: +99893-043-44-31

E-mail: mahmudjonmahkamov77@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21042752>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizdagi ko‘plab madaniy meros obyektlari qatorida o‘zining boy tarixi, moddiy va ma‘naviy topilmalari bilan mashhur bo‘lgan Axsikent yodgorligining o‘rganilish davrlari va bugungi davr zamonaviy texnologiyalari orqali targ‘ib qilish usullari haqida batafsil to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *direksiya, 3D modellashtirish, AR/VR texnologiyalari, virtual, rekonstruksiya, QR-kod texnologiyasi*

Аннотация: *В этой статье подробно рассказывается о периодах изучения памятника Ахсикент, известного своей богатой историей, материальными и духовными находками среди множества объектов культурного наследия нашей страны, а также о способах популяризации его с помощью современных технологий в наше время.*

Ключевые слова: *дирекция, 3D моделирование, AR/VR технологии, виртуальный, реконструкция, технология QR-кодов*

Annotation: *This article goes into detail about the study periods of the Axsikent monument, famous for its rich history and tangible and intangible artifacts among many cultural heritage sites in our country, and the ways to promote it today using modern technologies.*

Key words: *management, 3D modeling, AR/VR technologies, virtual, reconstruction, QR code technology*

O‘zbekiston qadim o‘tmishga ega bo‘lgan zamindir. Bu hudud juda boy moddiy-madaniy merosni o‘zida jam qilganki, ularning barchasi butun dunyo tamadduni uchun xizmat qila oladi deb bimalol aytishimiz mumkin. Yurtimizning sharqidan g‘arbga qadar cho‘zilgan sarhadlarida ko‘hna va navqiron shaharlarimiz bor bo‘lib, ular ayni damda turizm va investitsiya maydoniga aylanib bormoqda. Xususan, Samarqandda “Registon ansambili”, “Go‘ri Amir” maqbarasi, “Shohi Zinda” majmuasi, Xivada “Ichan qal’a” majmuasi, Buxoroda “Buxoro arki” yoxud Qo‘qondagi “Xudoyorxon o‘rdasi – bularning boy tarixga egadir. Shular qatorida bugungi kunda keng ko‘lamda o‘rganilayotgan yana bir muhim yodgorlik bu – Axsikent shahar xarobalaridir.

Axsikent - O‘zbekiston Respublikasi Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shahand qishlog‘i hududida, Sirdaryoning o‘ng sohilida joylashgan qadimiy shahar xarobasi. **Miloddan avvalgi III—II asrlarda vujudga kelgan, IX—X asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti** bo‘lgan.²⁵

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish davrida tarixiy-madaniy merosni asrash hamda targ‘ib qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston hududidagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan Axsikent boy tarixiy va madaniy merosga ega. Ushbu merosni nafaqat saqlash, balki uni dunyo miqyosida tanitish ham muhim vazifalardan biridir. Raqamli texnologiyalar tarixiy obyektlarni keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Internet va multimedia vositalari yordamida Axsikent haqida ma’lumotlar geografik chegaralardan qat’i nazar millionlab insonlarga taqdim etilishi mumkin.

²⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Axsikent>

Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida shaharga shunday ta’rif beriladi: “Farg‘onada Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qtur... Umarshayx Mirzo muni poytaxt qilib edi.”²⁶



So‘nggi yillarda Axsikent arxeologik yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. **2017-yilda “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi** tashkil etilib, arxeologik qazishmalar va ilmiy tadqiqotlar samaradorligi oshirildi.²⁷ Ushbu ishlar doirasida muzeylarni tashkil etish, ramziy darvozalar va tarixiy shaxslar haykallarini bunyod etish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sayyohlar uchun interaktiv ekskursiyalar, 3D modellashtirish va AR/VR texnologiyalari asosida virtual turlar orqali qadimiy shahar hududi bilan tanishish imkoniyati yaratilmoqda.



Axsikentni raqamli turizm orqali rivojlantirish yondashuvi hududni milliy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh turizm manziliga aylantirish, sayyohlar oqimini oshirish va ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Axsikent arxeologik yodgorligi va tarixiy majmuasi Farg‘ona vodiysining markaziy turizm obyektlaridan biri sifatida katta salohiyatga ega.

²⁶ Bobur Z.M. **Boburnoma**. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 512 b

²⁷ <https://lex.uz/uz/docs/-3382160>

So‘nggi yillarda ushbu hududning turizm salohiyatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar tatbiq etilmoqda.²⁸

Xususan, ushbu obyektni keng ommaga yanada kengroq tanitish hamda ma’lumotlarni taqdim etish maqsadida bugungi kunda virtual ekskursiyalar tashkil etish, 3D modellashtirish va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish, mobil ilovalar yaratish, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot usullarini rivojlantirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini jalb qilish hamda QR-kod texnologiyasidan foydalanish ham muhim va asosiy usullar sifatida baholanmoqda.²⁹

Bugungi kunda qadimiy Axsikent yodgorligi YUNESKO butunjahon madaniy merosi ob’ekti hisoblanadi. 2001 yilda Axsida “O‘zbek davlatchiligi tarixida Axsikent” mavzusida xalqaro seminar o‘tkazilgandi. Ammo uning tarixi yetarli targ‘ib qilinmadi, ko‘zda tutilgan muzey hozirgacha mavjud emas. Axsikent qal’asining umumiy ko‘rinishi hamon mutaxassislar tomonidan rekonstruksiya tarzda tiklanmadi, aniq xaritasi yo‘q, chegarasi noma’lum qolmoqda. Tarixi eramizdan avvalgi IV asrlarga borib taqaluvchi bu noyob yodgorlikni chuqur o‘rganish, qadim poytaxt shahar tarixi bilan yurtdoshlarimiz, xorijiy sayyohlarni tanishtirish vilotda turizmni rivojlanishi uchun keng imkoniyatdir.³⁰

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Axsikent merosini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilish tarixiy yodgorlikning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, turizmni rivojlantirish va yosh avlodning milliy merosga bo‘lgan hurmatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Virtual ekskursiyalar, 3D modellashtirish, sun’iy intellekt, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar kabi zamonaviy vositalar Axsikentni dunyoga tanitishning eng samarali yo‘llaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Axsikent>

²⁸ <https://aps.tsuos.uz/storage/users/462/articles/PXOTnM2voALshfui3eefcOJwD61OBFibKvVLVP6r.pdf>

²⁹ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_37C3B3F8E56FA16639F54C34D281C791A2E4060E.pdf

³⁰ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/axsikent-xarobalari-bosqinlar-ziddiyatlar-va-halokatli-zilzila-fotogalereya>

2. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 512 b
3. <https://lex.uz/uz/docs/-3382160>
4. Namangan viloyati Axsikent arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi materiallari. – Namangan, 2025.
5. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_37C3B3F8E56FA16639F54C34D281C791A2E4060E.pdf
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniy meros va turizmni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2024.
7. Asqarov A. *O‘zbekiston tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniy meros va turizmni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2024.
9. Mirzayev T. *O‘zbek xalqining madaniy merosi*. – Toshkent: Sharq, 2016.
10. <https://aps.tsuos.uz/storage/users/462/articles/PXOTnM2voALshfui3eefcOJwD61OBFibKvVLVP6r.pdf>
11. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/axsikent-xarobalari-bosqinlar-ziddiyatlar-va-halokatli-zilzila-fotogalereya>